



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY XALQ O‘YINLARI TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Suvanova S. B.

*Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: «МТТ», «men»”ijodkorlik”, «xotira» “diqqat”, «tasavvur», «jamoatchilik», «o‘yin», «xalq» “maktabgacha ta’lim”, «bolalar».

Ключевые слова: «МТТ», «Я», «Творчество», «память», «внимание», «воображение», «сообщество», «игра». «народная». «дошкольное образование». «дети».

Key words: «МТТ», «Me», «Creativity», «memory», «attention», «imagination», «community», «national», «preschool education», «children».

Yosh avlod ta’lim-tarbiyasini asosiy va boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimida bo‘layotgan ko‘plab yangiliklar, o‘zgarishlarning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, iqtidori, individual jismoniy va ruhiy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolalarning ma’naviy me’yorlarining shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashini ko‘zda tutgan har tamonlama rivojlanishlari uchun qo‘yilgan mustahkam poydevorni yaratmoqda. Bu borada maktabgacha ta’lim vazirligi maktabgacha ta’lim sifatiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Milliy xalq o‘yinlari orqali bolalarni ma’naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida ularda o‘z Vatanini sevish, uning boylklari qadriga yetish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo‘shiqlardan zavqlanish tuyg‘ulari, shuningdek, o‘sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlilik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

Milliy xalq o‘yinlarini maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- milliy xalq o‘yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo‘llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;



- milliy xalq o‘yinlarni tashkil etishda ma’naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqloq ruhida tarbiyalashda milliy xalq o‘yinlaridan maqsadli foydalanish;
- milliy xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;
- bolalarning o‘ynashlari uchun shart-sharoit (o‘yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;
- maktabgacha ta’lim muassasalari, oila va mahallalar o‘rtasida milliy xalq o‘yinlari bo‘yicha ko‘rik tanlovlari va musobaqalar o‘tkazish.
- Milliy xalq o‘yinlari bolalarning yosh xususiyatlariga o‘yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

4-5 yoshli bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yin turlari: “Chir-Aylanma”, “Chillak», «Tortishmachoq», “Lafta», «Dor o‘yin», «Ko‘pkari», «Berkinmachoq», «Jami», «Chertan devor gir-gir aylan». Katta yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar: «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do‘ppi yashirma», «Sapalak», «Besh tosh», «Oq terakmi ko‘k terak». Bu o‘yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o‘z-o‘zini boshqara olish va o‘ziga ishonch tarbiyalanadi, qat’iyatlilik ko‘nikmalari shakllanadi, fikrlashga o‘rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bo‘lishga tayyorlanib boradi.

O‘yinda bola shaxsining barcha qirralari ochiladi, ruhiyatida yangi, yanada yuqori rivojlanish bosqichiga o‘tishga tayyorlaydigan sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu bilan psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida o‘yinning ulkan tarbiyaviy imkoniyatlari yuqoriligini aytishadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash bolaning ijtimoiy, xissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Bu unga umri davomida mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni o‘ynaydi, shuning uchun ularga ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni ko‘plab quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston hukumati 2017-yildan kichik yoshdagi bolalarni sifatli o‘qitish va tarbiya qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilgan vaqtdan beri 2030- yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari doirasida qulay siyosiy shart-sharoitlar hamda tizimli komponentlarni yaratish bo‘yicha qator salmoqli ishlar olib borilmoqda.

O‘yinning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati:



- Bolaning ijobiy ijtimoiylashuviga ko‘maklashadi. O‘yinda improvizatsiya qilsa, timsollar, vaziyatlarni o‘ylab topsa va shu tariqa atrof olam haqida yanada ko‘proq ma‘lumotlarni olsa bo‘ladi;
- Ruhiy (psixik) jarayonlarni shakllantiradi; xotira diqqat, tasavvur, nutq va h.k.
- Bolalarga quvonch bag‘ishlaydi, turli xissiyot va kechinmalarni uyg‘otadi, bolalar uchun atrofimdagi voqelikni anglash va ijodiy aks ettirishning qiziq va qulay shakli hisoblanadi.
- Ijtimoiy xulq-atvorning dastlabki ko‘nikmalarini egallashga imkon beradi; boshqa bolalar bilan muloqatda bo‘lish, ular bilan turli munosabatga kirishish, umumiy o‘yin rejalarini amalga oshirish uchun kelish va birlashish, o‘yindagi sheriklarining manfaatlarini hisobga olish;
- Bolalarga jamiyatdagi o‘z o‘rnini tushinish va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlikni kamaytirishga yordam beradi. O‘yinda bolalar ko‘nikmalaridan foydalanuvchi nazorat qiladigan harakat makonini yaratadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy hayoti aynan o‘yinda to‘liq faollashgan bo‘ladi. O‘yin bolalarga muloqatning turli shakllaridan mustaqil foydalanish imkonini beradi.

O‘yin jarayonida bolalar orasida ikki turdagi munosabatlar shakllanadi;

- O‘yin mazmuni, qoidalari bilan belgilanadigan munosabatlar;
- O‘yin bo‘yicha namoyon bo‘ladigan haqiqiy munosabatlar (rollarning taqsimlanishi, nizodan chiqish va h.k.)

Real munosabatlar shaxsiy bo‘lib, nafaqat o‘yinda balki maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolaning butun yashagan davri davomida shakllanadi. Shunday qilib, haqiqiy munosabatlar asosida bolalar “jamoatchilik” ifatlarini shakllantiradilar.

O‘ynayotgan bolalar guruhiga kirish, unda muayyan tarzda harakat qilish, sheriklar bilan munosabatlar o‘rgatish, jamoatchilik fikriga bo‘ysunish.

Munosabatlar asosida ijtimoiy his-tuyg‘ular va odatlar shakllanadi; birgalikda va maqsadli harakat qilish qobiliyati rivojlanadi; manfaatlar mushtarakligi anglanadi; o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘zaro hurmat qilish asoslari shakllanadi. O‘yin faoliyatining katta ahamiyati shundaki, u bolalar jamiyatini shakllantirish uchun juda keng imkoniyatlarga ega. O‘yinlarda bolalar his-tuyg‘ularini rivojlantiradilar, o‘z taassurotlarini aks ettiradilar, o‘zlari taqlid qilayotgan va chin dildan o‘xshashni istagan shaxsning bilimi va hatti-harakatini o‘zlashtirishga harakat qiladilar. O‘yin davomida bolalar do‘stona munosabatlarga kirishadilar, birgalikda harakat qiladilar va zavqlanadilar.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda o‘yinlar ancha murakkab syujet bilan ajralib turadi. Unda odatda inson munosabatlari, ijtimoiy hayotning turli



hodisalari aks etadi; o'yinlarda bevosita kuzatuvlardan va bilvosita (kitob o'qish, suhbatdan so'ng va hk.) olingan tasavvurlar ulanib ketadi. Barcha yoshdagi bolalar o'yinlarida bolalarning his-tuyg'ulari va atrof-muhitga bo'lgan munosabatlari yaqqol namayon bo'ladi.

6-7 yoshga kelib o'yinning roli va ahamiyati oshadi. Bolalar ularga tanish bo'lgan o'yinlarni o'zlari tashkil qila oladi, ishtirokchilar tomonidan qoidalar aniq bajarilishi ustidan nazorat qilib boradi.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bevosita rahbarlik qilish usullari qo'llanilishi davom etadi va o'yin mavzusini taklif qilish, uni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berish va ayrim bolalarni o'yin materiallarini tanlashga o'rgatish shakllari qo'llaniladi. O'yinni boshqarishning o'ziga xosligi shundaki, uni tashkil etish usullari o'yin vazifasi va hayoliy vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lishi va pedagog hayrixoh ishtirokchi pozitsiyasini egallashi lozim. Katta yoshdagi bolalarda o'yinchoqlar va o'yin materiallariga ma'sulyatli, ehtiyotkorona munosabatda bo'lish odatini shakllantiradilar. Ular o'z tashabbusi bilan stol o'yinlari uchun qutilarni tamirlaydi, qo'g'irchoq kiyimini yuvadi.

O'yin bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy hissiy salomatligi va farovonligida markaziy rol o'ynaydi. Tadqiqotlar hatto o'ynash imkoniyatidan mahrum bolalar keyinchalik ijtimoiy va hissiy muammolarga duch kelishi mumkinligini tasdiqladi.

O'yin bu bolalar olamni qanday qabul qilishi va o'z tajribasini anglashidir. O'yin shunday ahamiyatga egaki, 2013-yilda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasiga uning ahamiyati haqida quyidagi izoh qo'shildi. Unda aytilishicha, o'yinlar va o'yin-kulgu bolalar salomatligi va farovonligi uchun juda muhimdir, va ijodkorlik, tasavvur, o'z-o'ziga ishonch, samaradorlik va jismoniy, ijtimoiy, kognitiv va hissiy kuch va ko'nikmalarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ular ta'limning barcha jihatlariga hissa qo'shadilar; o'yinlar kundalik hayotda ishtirok etish shakli bo'lib, bolaga faqat quvonch va zavq keltirishi nuqtai nazaridan katta ahamiyat ega. Ijodiy o'yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi. Ijodiy o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinlar texnologiyasi. O'yin texnologiyasining nazariy asoslari. Bugungi kunda ta'lim tizimida, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida ham yan-gi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo'llarini amaliyotchi-tarbiyachi va o'qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. «Texnologiya» yunoncha so'z



bo‘lib, «techne» - «mahorat», «san‘at» va «logos» - «tushuncha», «o‘rganish» demakdir. Texnologiya so‘zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig‘indisi, shuningdek, obyektida sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlari tushuniladi. Ta‘lim texnologiyasi tushunchasi ta‘lim maqsadiga erishish quroli, ya‘ni oldindan loyihalashtirilgan ta‘lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta‘lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta‘lim maqsadiga erishishni ta‘minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta‘limning samaradorligi o‘qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta‘lim maqsadining aniq shakllanganligi.

O‘yin texnologiyasi ham o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta‘riflaydi. Har qanday o‘yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

S.A. Shmakovning ta‘kidlashicha, o‘yinlar quyidagi to‘rt asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya‘ni bola o‘yinni o‘zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda, yakuniy natija emas, balki o‘yin jarayoni muhim ahamiyatga ega; ijodiy xarakter, ya‘ni o‘yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;
- emotsional ta‘sir - bola o‘yinda markaziy o‘rin egallashni xohlaydi, g‘olib bo‘lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;
- asosiy va qo‘shimcha qoidalar o‘yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi. O‘yin strukturasi maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O‘yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiylikidir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. Nazariy jihatdan o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qarash mumkin.

O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi. O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin



xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi. Jarayon sifatida o‘yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta’biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- o‘ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo‘lgan o‘yin harakatlari;
- haqiqiy narsalarni shartlilarga almashtirish;
- o‘yinda ishtirok etuvchilarning real o‘zaro munosabatlari;
- o‘yinda shartli ravishda yaratilgan sujet (mazmun),

Har qanday texnologiyada, jumladan, o‘yin texnologiyalarida ham, o‘quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologiyaning asosiy negizidir. Maqsad to‘g‘ri qo‘yilishi uchun tarbiyachi bolaga nimani o‘rgatmoqchi bo‘lganligini bilishi kerak. Bitta mashg‘ulotda bitta maqsad qo‘yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va h.k.

O‘yin texnologiyalari (ayniqsa, bog‘cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkurini rivojlantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o‘yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo‘ladi. Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlarni o‘quv tarbiya jarayonida qo‘llash quyidagi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g‘ishtchalar kvadratlar, plastilin, karton qog‘ozlar, konstruktiv-mexanik majmualarida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta’minlash maqsadida ulni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig‘ida sifatli bajarilishini ta’minlash darkor.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida interfaol o‘yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o‘yinlar jarayonida bola passiv obyektidan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o‘yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat. Interfaol o‘yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to‘g‘ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o‘rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o‘yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zamin bo‘lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o‘yinlarni samarali o‘tkazish uchun quyidagi qoidalarga e’tibor berish lozim:

1. Mashg‘ulot oldidan bolalar o‘yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish.
4. O‘yin jarayonida bolalarga qiziq bo‘lgan materiallardan foydalanish.



5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.
7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasawurga ega bo'lish va natijalarini prognoz qilish.

Pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak.

O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy tarzda o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Adabiyotlar:

1. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qaror (09.09.2017)
2. PQ-3261 09.09.2017 Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror.
3. "Maktabgacha pedagogika" F.R.Qodirova, SH.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. Shin.A.V., Mirziyoyeva.Sh.Sh., Grosheva.I.V, T. 2019
4. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish." A.Shin, Sh.Mirziyoyeva va boshqalar (Metodik qo'llanma) T. 2020
5. O'yin orqali ta'lim olish. Shin.A.V., Mirziyoyeva.Sh.Sh., Grosheva.I.V, T.2020
6. www. tdpi. uz
7. www. pedagog. uz
8. www. ziyonet.uz
9. www. Edu. Uz

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy rivojlanishida milliy xalq o'yinlarining ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida o'yin terapiyasining ahamiyati, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatida hamda bolaning aqliy rivojlanishida milliy xalq o'yin usullaridan foydalanish yo'llari.

РЕЗЮМЕ

Значение национальный игры в творческом развитии детей дошкольного возраста. Значение игровой терапии в деятельности дошкольников, способы использования игровых методов в творческой деятельности дошкольников и психическом развитии ребенка.

SUMMARY

The importance of the national game in the creative development of children of preschool age. The importance of play therapy in the activities of preschool children, ways of using national game methods in the creative activities of preschool children and mental development of the child.